

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

SOATALIYEV RAXIMJON RAXMONJON O'G'LI

**AVTOMOBIL YO'LLARINING TRANSPORT-EKSPLUATATSION
KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TA'MIRLASH ISHLARINI
REJALASHTIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 - "Geotexnika" (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati xavfsizligi.
Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2022 yil

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Soataliyev Raximjon Raxmonjon o'g'li

Avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari asosida ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirish.....3

Soataliyev Raximjon Raxmonjon o'g'li

Совершенствование метода планирования ремонтных работ на основе транспортно-эксплуатационных показателей автомобильных дорог.....25

Soataliyev Raximjon Raxmonjon o'g'li

Improving the methodology for planning repair work based on the transport and operational indicators of highways.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

SOATALIYEV RAXIMJON RAXMONJON O'G'LI

**AVTOMOBIL YO'LLARINING TRANSPORT-EKSPLUATATSION
KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TA'MIRLASH ISHLARINI
REJALASHTIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 - "Geotexnika" (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati
xavfsizligi. Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2022 yil

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3PhD/T3186 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urokov Aslidin Xushvaktovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kasimov Irkin Umaraliyevich
texnika fanlari doktori, professor

Salixanov Said Salixanovich
texnika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2022 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Odilxojayev ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Odilxojayev ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2022 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

R.M.Xudayqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD, professor

I.S.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini baholash va doimiy nazorat qilib borishda zamonaviy, resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish hamda ularning qiymatini me‘yoriy talablar darajasida ushlab turish uchun ta‘mirlash ishlarini samarali rejalashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ining ehtiyojini hisobga olib optimallashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda “...transportga bo‘lgan talabning ortib borishi sababli, yirik yo‘l tarmoqlarini shakllantirish 20-asrga xos bo‘lgan bo‘lib, hozirda ushbu mamlakatlarning avtomobil yo‘llarini boshqarish korxonalari asosiy strategik vazifalarni yangi yo‘l infratuzilmalarini loyihalash va qurishdan mavjud yo‘l tarmoqlari holatini yo‘ldan foydalanuvchilar talablariga muvofiq holda ushlab turish uchun ta‘mirlash va saqlash ishlarini samarali rejalashtirishga o‘zgartirishgan”¹. Bu borada, jumladan ta‘mirlash ishlarini rejalashtirish uchun avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini o‘zida jamlagan yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish, avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini baholash va ta‘mirlash ishlari ta‘sirida ularning o‘zgarishini modellashtirish orqali rejalashtirilgan ta‘mirlash ishlarining samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini oshirish, xususan yo‘llarda bajarilishi zarur bo‘lgan ta‘mirlash ishlarini belgilash muddatlarini optimallashtirish, avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish jarayonida transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini doimiy baholab borish hamda ta‘mirlash ishlarini rejalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, avtomobil yo‘llari to‘shamasining mustahkamligi, yo‘l qoplamasining ravonligi va tishlashish koeffitsiyenti kabi transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga transport oqimi hamda havo-iqlim omillarining ta‘sirini inobatga olib ularning o‘zgarishini nazorat qilish va ta‘mir turi hamda uni belgilash muddatini optimallashtirish, yo‘l holati o‘zgarishi va ta‘mirlash ishlarini rejalashtirish jarayonini modellashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatlarini oshirish va iste‘mol xususiyatlarini yaxshilash, belgilanayotgan ta‘mirlash ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish”² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, zamon talablariga javob beradigan avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarini samarali ekspluatatsiya qilish orqali xizmat muddatlarini oshirish, jumladan yo‘lning transport-ekspluatatsion

¹ <https://addi.ehu.es/bitstream/handle/10810/31891/applsci-08-01041.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

ko'rsatkichlarini o'zida jamlagan ma'lumotlar bazasini yaratish hamda optimallashtirish algoritmlari asosida mavjud byudjet cheklovlari sharoitida belgilangan ta'mirlashni samarali rejalashtirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, PF-5890-son "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, PQ-4545-son "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlarini rejalashtirishni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston va xorijda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan xorijda: Hudson W.R., Uddin W., George, K., Shahin, M.Y., LeClerc, R.V, Jeff Zavitski, Ralph Haas, Phillips, S.J., Ferreira A., Knepper, Siegfried, Fwa Tien Fang va Sinha, George, K.P., Kerali, Jain, Nima Kargah-Ostadi, Promotes Saha, Jorge A.P. va boshqa tadqiqotchilar tomonidan, MDH davlatlari va O'zbekistonda Vasilyev A.P., Babkov V.F., Silyanov V.V., Busel A.V., Krasikov O.A., Kosenko I.N., Skvortsov A.V., Poxomov D.M., Sadikov I.S., Azizov Q.X., Urokov A.X., Sadikov J.I., Alimov B.R., Yunusov A.G'., Xalmuxamedov A.S. va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlarda ta'mirlash ishlari tasnifidagi ish turlarining avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga ta'sirini hisobga olib ta'mirlash ishlarini samarali va istiqbolli rejalashtirish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada bajarilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IZ-2020052616 "Asfaltbeton ishlab chiqarishda slanesli tog' jinslaridan mineral kukun olish texnologiyasini ishlab chiqish" nomli innovatsion, IL-4821091606 "Ekstremal transport yuklamalar va haroratni qabul qiluvchi asfaltbetonlarning reologik xossalarini "Superpave" tizimida yo'naltirib tartibga solish" nomli fundamental ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil yo'larining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari asosida ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini optimallashtirish algoritmlaridan foydalangan holda takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini baholash va ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usullarini tahlil qilish;

avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini tadqiq qilish;

muddatidan kechiktirilmay rejalashtirilgan ta'mirlash ishlarini avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari o'zgarishiga ta'sirini tadqiq qilish;

avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari o'zgarishiga havo-iqlim omillarining ta'sirini tadqiq qilish;

avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari va optimallashtirish algoritmlaridan foydalangan holda ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirish;

takomillashgan usulni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari tarmog'i qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida avtomobil yo'lining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlari (yo'l to'shamasining mustahkamligi, qoplama ravonligi, tishlashish sifati va transport oqimining tarkibi) qabul qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida eksperiment, tizimli va nazariy tahlil, matematik statistika, korrelyatsion-regression tahlil va modellashtirish, optimallashtirish, geofazoviy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xalqaro ravonlik indeksi (IRI) ko'rsatkichi bo'yicha avtomobil yo'li qoplamasining ravonligi va yo'l qoplamasining holatini undagi nuqsonlar asosida baholashga imkon beruvchi yo'l holati indeksi (PCI) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan;

qoplama ravonligining lazerli profilometr va smartfon yordamida o'lchashda aniqlangan natijalarini o'lchash tezligiga bog'liq holda o'zgarishini hisobga olib, 50, 60, 70 km/soat tezliklarda turli qurilmalarda olingan natijalar o'rtasidagi bog'liqliklarni ifodalovchi matematik ifodalar ishlab chiqilgan;

avtomobil yo'llarida qisqa va uzoq muddatli ta'mirlash ishlarini rejalashtirish jarayonida muddatidan kechiktirilmay rejalashtirilgan yo'l-ta'mirlash ishlarining avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ta'siri asoslangan;

havo-iqlim sharoiti ta'sirida qoplama haroratining ortishi sabab yo'l to'shamasining umumiy mustahkamligining kamayishi isbotlanib, qoplama harorati va yo'l to'shamasining umumiy mustahkamligi o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlari aniqlangan;

avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari va optimallashtirish algoritmlaridan foydalangan holda ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

avtomobil yo'llarining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlarini resurs tejankor uslublaridan foydalangan holda aniqlash va avtomobil yo'llarini boshqarish tizimi uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

avtomobil yo'llarining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlarini o'zgarishini nazorat qilish va ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda geoaxborot tizimlaridan foydalanishning imkoniyatlari Toshkent viloyati yo'l tarmog'i misolida ko'rib chiqilgan;

avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari asosida genetik algoritmlardan foydalanib ta'mirlash ishlarini rejalashtirishning takomillashgan usulidan foydalanishning amaliy ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi baholangan;

takomillashgan usulni Respublika yo'l tarmog'ini boshqarishda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning standartlashgan uslub va zamonaviy hamda yuqori aniqlikdagi raqamlashgan o'chov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini o'lchash va ularni tahlil qilish matematik modellashtirish qoidalari asosida amalga oshirilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro o'xshashligi, ta'mirlash ishlarini rejalashtirish modelini qo'llash orqali olingan natijalarning shu kabi modellar natijalari bilan o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtomobil yo'llarini transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari o'rganilganligi, turli ta'mirlash ishlarining yo'l holati o'zgarishiga ta'siri o'rganilganligi, transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari va genetik algoritmlardan foydalangan holda ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usuli takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishda ta'mirlash ishlarini samarali tashkil etish uchun yo'lning transport ekspluatatsion ko'rsatkichlarini o'zida jamlagan ma'lumotlar bazasini tashkil etish, yo'l holati o'zgarishini prognozlash, yo'l tarmog'i bo'yicha ta'mirlash ishlarini umumiy yo'l tarmog'i holatini yaxshilashni ko'zda tutgan holda optimallashtirish va bu orqali yo'l tarmog'i holatini me'yor darajasida bo'lishini ta'minlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari asosida ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llaridagi qoplama ravonligi va yo'l holati indeksi (PCI) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2022-yil 21-oktyabrdagi, 03-3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qoplama ravonligi ko'rsatkichi asosida yo'ldagi mavjud nuqsonlar holatidan kelib chiqib ta'mirlash ishlarini samarali rejalashtirish imkoniyati yaratilgan;

qoplama ravonligining turli o'lchash qurilmalarida aniqlangan natijalarning o'lchash tezligi ta'sirida o'zgarish qonuniyatlari Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2022-yil 21-oktabrdagi, 03-

3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada avtomobil yo'llarida qoplama ravonligini resurs tejankor usullardan foydalangan holda tezkor baholash va ta'mirlash ishlarini samarali rejalashtirish orqali ta'mirlashga sarflanayotgan mablag'larni 20% ga tejashga erishilgan;

muddatli rejalashtirilgan yo'l-ta'mirlash ishlarining avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari o'zgarishiga ta'siri aniqlangan va bu Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2022-yil 21-oktyabrdagi, 03-3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini bir yillik va ko'p yillik rejalarini ishlab chiqish hamda, ushbu rejadagi ishlarni amalga oshirish orqali avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari o'zgarishini nazorat qilib borish imkoniyati yaratilgan;

havo-iqlim sharoiti ta'sirida avtomobil yo'llari transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarining o'zgarish qonuniyatlari Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2022-yil 2022-yil 21-oktyabrdagi, 03-3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asfaltbeton qoplamalarining maksimal harorati ma'lumotlariga asoslangan holda plastik deformatsiyalar yuzaga kelishini oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, hamda yo'l qoplamasining xizmat muddatini 3-5 yilga ochirishga erishilgan;

optimallashtirish algoritmlarni qo'llash orqali ta'mirlash ishlarini rejalashtirishning takomillashtirilgan usuli Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2022-yil 2022-yil 21-oktabrdagi, 03-3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasiga asoslangan holda byudjet cheklovlarida ham ta'mirlash ishlarini samarali rejalashtirish imkoniyati yaratilgan va sarflanayotgan mablag'larni 30-35% gacha iqtisod qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro (jumladan 1 ta "Scopus" bazasiga kirgan konferensiyada) va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan. Shuningdek, 2 ta EHM dasturi uchun mualliflik guvohnomalari rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy-ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning zamonaviy holati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan bobida O‘zbekiston Respublikasi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining zamonaviy holati, avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini baholashning mavjud usullari, avtomobil yo‘llari tarmog‘ini ta’mirlash ishlarini rejalashtirishning mavjud usullari, avtomobil yo‘llarini transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini o‘lchashning zamonaviy vositalari va o‘lchov o‘tkazishning usullari tahlil qilingan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston yo‘l tarmog‘i holati bo‘yicha yagona rasmiy ma’lumot Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining rasmiy veb-saytida berilgan. Ushbu ma’lumotga ko‘ra bugungi kunda respublikada jami 209469 km avtomobil yo‘li mavjud bo‘lib, yo‘l tarmog‘ining zichligi har 100 km² maydonda 47 km ni tashkil etadi. Avtomobil yo‘llari tarmog‘ini umumiy foydalanishdagi (42869 km), ichki xo‘jalik (141882 km) va idoraviy (24745 km) avtomobil yo‘llari tashkil etadi. 1991-2022 yillarda tarmoq bo‘yicha katta o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lib, 1991-yil 1-yanvar holatiga umumiy foydalanuvdagi yo‘l tarmog‘ining uzunligi 39828 kilometrni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib 42869 kilometrga yetgan.

So‘nggi 10 yil davomida davlat byudjetidan umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash uchun umumiy hisobda 32 trln. so‘mga yaqin mablag‘lar sarflangan. 2013-2022 yillarda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi o‘rtacha 12,3 % ni tashkil etishini hisobga olsak, umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘lar hajmi 2013-yilga nisbatan yillar davomida o‘shirish o‘rniga kamayishini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda bir qator mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, respublika umumiy foydalanuvdagi yo‘l tarmog‘ining holati bo‘yicha ma’lumotlarda, ta’mirlanmay qolib ketgan yo‘llar umumiy yo‘l tarmog‘ining 65-70 % ni tashkil etishi keltirilgan. Lekin, avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnik siyosat yurituvchi qo‘mita tomonidan berilgan rasmiy ma’lumotlar tahliliga ko‘ra bu ko‘rsatkich 17 % ni tashkil etishi keltirilgan, shuningdek, respublikada mavjud 141882 km ichki xo‘jalik yo‘llarining 74219 km qismi (52 %) ta’mirtalab holatda ekanligini ko‘rsatilgan.

MDH davlatlarida, shuningdek O‘zbekistonda amal qilayotgan me’yoriy hujjatlarda va bir qator adabiyotlardan ko‘rishimiz mumkinki, avtomobil

yo'llarining transport-ekspluatatsion holatini baholash yo'ning iste'mol xususiyatidan kelib chiqib qabul qilingan transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini me'yoriy talablarga muvofiqlik darajasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu uslubda integral ko'rsatkich sifatida barcha asosiy transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan harakat tezligi (v) tanlab olinadi va hisobiy tezlikning ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($K_{x.t.}$) ko'rinishida ifoda etiladi.

Yo'ning transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini baholashning mavjud usullari ko'p vaqt va resurs talab etadi. Ushbu usullar asosida yo'l tarmog'i bo'yicha ishlarni bir yillik va ko'p yillik rejalashtirish imkoni mavjud emas. O'zbekiston sharoitini hisobga olib avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarni aniqlash orqali yo'l tarmog'i holatini baholash usulini takomillashtirish zarur hisoblanadi.


Dissertatsiyaning **“Avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida avtomobil yo'llari qoplamasining ravonligi, avtomobil yo'llaridagi transport oqimining harakat jadalligi va tarkibi, avtomobil yo'llari qoplamasining tishlashish koeffitsiyenti, avtomobil yo'llari to'shamasining mustahkamligi kabi transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari tadqiq qilish natijalari keltirilgan.

Tadqiqot obyektlari sifatida belgilangan A373a avtomobil yo'li uzunligining 52 % (23,4 km), 4P21 avtomobil yo'li uzunligining 20,2 % (4,4 km), 4P12 avtomobil yo'li uzunligining 12,7 % (9,5 km), 4P2 avtomobil yo'li uzunligining 28,2 % (13,3), M39b avtomobil yo'li uzunligining 35 % (23,5 km) bo'lagida yo'l qoplamasi ravonligining holati standarti talablariga muvofiq emasligi aniqlandi. Qoplama ravonligining standart talablarga muvofiq kelmasligi yo'ning iste'mol xususiyatlarini yomonlashishiga, shuningdek qoplama ravonligining ruxsat etilgan chegaradan oshib ketishi transportdan foydalanish xarajatlarining oshishiga olib keladi.


Avtomobil yo'llari qoplama ravonligining haqiqiy holatini aniqlash maqsadida tadqiqot obyektlarida o'lchangan ko'rsatkichlar asosida quyidagi qoplama ravonligi taqsimot egriligi qurildi (1-rasm).

Tadqiqot obyektlari sifatida belgilangan, umumiy uzunligi 256 km bo'lgan avtomobil yo'llarining har 100 m bo'lagida ya'ni 2560 ta o'lchovlarda aniqlangan ravonlik ko'rsatkichi bo'yicha 1-rasmda keltirilgan taqsimot egriligidan ko'rishimiz mumkinki, natijalarning ko'pchilik qismi 3,0 m/km dan 5,0 m/km oralig'iga to'g'ri keladi.

Qoplama ravonligini aniqlashda hozirda keng qo'llanilib kelinayotgan texnologiyalardan biri bo'lgan RoadLabPro dan foydalangan holda, tadqiqot obyektlarida sinov ishlari olib borildi. Bunda, RoadLabPro yordamida tadqiqot obyektlarida 50, 60 va 70 km/soat tezliklarda aniqlangan qoplama ravonligi ko'rsatkichlari, aynan ushbu obyektlarda “TRASSA” ko'chma yo'l laboratoriyasi yordamida aniqlangan ravonlik ko'rsatkichlari bilan solishtirildi (2-rasm).




1-rasm. IRI bo'yicha aniqlangan qoplama ravonligining taqsimot egriligi.




2-rasm. TRASSA yo'l laboratoriyasi lazerli profilometri va Samsung A31 smartfoniga o'rnatilgan RoadLabPro dasturi yordamida aniqlangan ravonlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik.

Yuqoridagi 2-rasmda turli tezliklarda va turli qurilmalarda aniqlangan ravonlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi regression bog'liqliklar aniqlangan. Bunda, 70 km/soat tezlikda aniqlangan ravonlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik 50 va 60 km/soat tezlikda aniqlangan ko'rsatkichlar bog'liqliklariga nisbatan kuchsiz bog'liqlikni tashkil etishini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi "TRASSA"

ko'chma yo'l laboratoriyasi 70 km/soat tezlik bilan harakatlenganda uning salonidagi vertikal tezlanishning standart og'ish qiymatlari 50 va 60 km/soat tezlikda harakatlengandagiga nisbatan yuqori bo'lishi hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Turli tezliklarda “TRASSA” ko'chma yo'l laboratoriyasi salonidagi vertikal tezlanishning standart og'ish qiymatlari.



4-rasm. IRI bo'yicha qoplama ravonligi va PCI ko'rsatgichlari o'rtasidagi bog'liqlik grafiklari


“TRASSA” yo‘l laboratoriyasida olingan avtomobil yo‘llarining video ma’lumotlaridan foydalangan holda PCI ko‘rsatkichi baholandi va ushbu ko‘rsatkich bilan qoplama ravonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlandi.

Bunday holatda yo‘l holatiga to‘g‘ri baho berish va ta‘mirlash ishlari turini to‘g‘ri tanlash uchun qoplama nuqsonlar tarqalish holatini o‘zida aks ettiruvchi indikatorga zaruriyat tug‘iladi. Shu kabi indikatorlardan biri bu PCI (YXI -yo‘l holati indeksi ko‘rsatkichidir).

PCI ko‘rsatkichi ASTM D6433-07 standarti bo‘yicha avtomobil yo‘lidagi mavjud nuqsonlar (yoriqlar, o‘yiqlar, yemirilishlar, g‘ildirak izi deformatsiyalari va b., jami 19 ta nuqson turi bo‘yicha) holatidan kelib chiqib 0 (yomon) dan 100 (a‘lo) gacha bo‘lgan shkalada baholanadi. Qoplama ravonligining IRI ko‘rsatkichi va PCI ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklardan foydalangan holda avtomobil yo‘lidagi nuqsonlarning rivojlanish darajasiga baho berish hamda zaruriy ta‘mir turini belgilash mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot obyektlarida aniqlangan transport oqimining jadalligi va tarkibi ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, transport oqimi tarkibidagi yuk avtomobillarining ulushi A373a avtomobil yo‘lida 28 %, M39b avtomobil yo‘lida 25 %, 4P2 avtomobil yo‘lida 19 %, 4P21 avtomobil yo‘lida 15 % ni tashkil qiladi.

Avtomobil yo‘lining transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga transport oqimi tarkibidagi yuk avtomobillarining ta’siri tadqiq qilindi. Bunda tadqiqot obyektlari bo‘yicha oqim tarkibidagi yuk avtomobillarining ulushi va umumiy yo‘l uzunligiga nisbatan transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlari qoniqarsiz bo‘lgan yo‘l bo‘laklarining ulushi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi (5-rasm).




5-rasm. Transport oqimi tarkibidagi yuk avtomobillari ulushi va transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlari qoniqarsiz yo‘l bo‘laklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik grafigi


5-rasmdan ko‘rish mumkinki, avtomobil yo‘llarida transport oqimi tarkibidagi yuk avtomobillari ulushining yuqori bo‘lishi, ushbu yo‘llardagi transport ekspluatatsion ko‘rsatkichlarning qoniqarsiz holatga kelishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot obyektlarida avtomobil yo‘llari qoplamasining tishlashish sifati “TRASSA” yo‘l laboratoriyasining PKRS-3 “METRIKA” qurilmasidan foydalangan holda aniqlandi. Tadqiqotlar natijasida qoplamaning tishlashish koeffitsiyenti qiymati belgilangan me‘yorlar talabiga javob bermaydigan yo‘l bo‘laklari ko‘pligi aniqlandi. M39b avtomobil yo‘lida qoplamaning tishlashish

koefitsiyenti qoniqarsiz bo'lgan yo'l bo'laklari ko'p bo'lib, ushbu avtomobil yo'lida transport vositalari uchun harakatlanish xavfli ekanligi va yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lish ehtimoli yuqoriligi aniqlandi (6-rasm).



6-rasm. M39b avtomobil yo'lida qoplama tishlashish koefitsiyentini baholash grafigi



7-rasm. Tadqiqot obyektlarida aniqlangan yo'l to'shamasi mustahkamlik ko'rsatkichlari grafigi


Yo'l tarmog'i bo'yicha ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari qoniqarsiz bo'lgan yo'l bo'laklarini aniqlash va zarur

ta'mir turini o'z vaqtida belgilash orqali yo'l holatini yaxshilash va harakat xavfsizligini oshirish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot obyektlarida yo'l to'shamasining mustahkamligi "TRASSA" yo'l laboratoriyasining DINA 4 FWD qurilmasidan foydalangan holda aniqlandi. DINA 4 FWD qurilmasi yordamida aniqlangan yo'l to'shamasidagi elastik egilishi va qoplama harorati qiymatlaridan foydalangan holda yo'l to'shamasining umumiy elastiklik moduli qiymatlari aniqlandi (7-rasm).

Toshkent viloyati havo-iqlim sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasida yozgi davrlarda havo harorati +30 °C dan yuqori bo'lganda yo'l qoplamasi harorati 58-60 °C dan yuqori bo'lishi aniqlandi. Qoplama haroratining o'zgarishini (oshib borishini) yo'l to'shamasining mustahkamligiga ta'sirini o'rganish maqsadida 4P2 avtomobil yo'lida tadqiqot ishlari olib borildi. O'tkazilgan eksperimental tadqiqot ishlari natijasida quyidagi bog'liqlik qonuniyati aniqlandi (8-rasm).

Qoplama harorati va yo'l to'shamasining mustahkamligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik




8-rasm. Qoplama harorati va yo'l to'shamasining mustahkamligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyati

Yuqoridagi grafikda (8-rasm) keltirilgan bog'liqlik qonuniyati asosida aniqlangan tenglama orqali qoplama harorati 30 °C va 60 °C bo'lgan holatlar uchun hisoblangan yo'l to'shamasining elastiklik moduli ko'rsatkichlari mos ravishda 753 va 572 MPa ga teng bo'lishi, oradagi farq esa 181 MPa ni tashkil qilishi, ya'ni 24% ga kamayishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida avtomobil yo'llarini o'z muddatida ta'mirlashning yo'l ekspluatatsion holatini o'zgarishiga ta'sirini baholash, yo'l-ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda optimallashtirish algoritmlarini qo'llash, avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirish, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari asosida ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda geoaxborot tizimlarini qo'llashga oid natijalar keltirilgan.

2016-2022 yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, avtomobil yo'llarining ta'mirlash va saqlash ishlarini samarasiz tashkil etilganligi oqibatida qoplama ravonligi ko'rsatkichining oshib borganligini ko'rish mumkin (9-rasm). Tadqiqot obyektlarida qoplama ravonligining 2016-2022 yillar


oralig'ida aniqlangan qiymatlari tahlil qilinganda qiymatlar orasidagi farq 0 dan 7,2 m/km gacha o'zgarishi aniqlandi. Qoplama ravonligining ushbu yo'llarda so'ngi 6 yildagi o'rtacha qiymatlari o'rtasidagi farq 1,0-1,4 m/km ga teng. Bundan kelib chiqadiki, qoplama ravonligining ko'rsatgichi yildan-yilga oshib borgan (9-rasm).



9-rasm. Tadqiqot obyektlarida qoplama ravonligining 2016-2022-yillar oralig'idagi o'zgarish dinamikasi

Xorijda va O'zbekistonda avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda optimallashtirish masalalarining qo'llanilishi bo'yicha bir qator tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ushbu ishlarda ta'mirlash ishlarini rejalashtirishda chiziqli va chiziqsiz dasturlash, dinamik dasturlash va shu kabi optimallashtirish algoritmlarining qo'llanilishini ko'rish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini rejalashtirish usulini takomillashtirishda genetik algoritmlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyidagi 10-rasmda genetik algoritmlarning ishlashi blok-sxemasini keltirilgan.

Genetik algoritmlarning ishlashi blok-sxemasida dastlabki bosqich boshlang'ich populyatsiyani yaratish hisoblanadi. Buning uchun yuqorida ko'rib chiqilayotgan hol uchun quyidagi kodlashni amalga oshirish kerak (11-rasm).



10-rasm. Genetik algoritmlarning ishlash blok-sxemasi

Yillar	1	2	3	4	...	T
Ta'mir turi	X_{11}	X_{12}	X_{13}	X_{14}	...	X_{1t}

Yillar	1	2	3	4	...	T
Ta'mir turi	X_{21}	X_{22}	X_{23}	X_{24}	...	X_{2t}

Yillar	1	2	3	4	...	T
Ta'mir turi	X_{31}	X_{32}	X_{33}	X_{34}	...	X_{3t}

Yillar	1	2	3	4	...	T
Ta'mir turi	X_{i1}	X_{i2}	X_{i3}	X_{i4}	...	X_{it}

11-rasm. Optimallashtirish modeli uchun yakuniy yechimni kodlash (dastlabki populyatsiyani yaratish)

bu yerda: X_{it} - i -yo'lda, t -yildagi ta'mirlash turi. X_{it} ga ta'mirlash turlarini butun sonli kodlash orqali, mos ravishda 1, 2, 3 ga teng bo'lgan qiymatlardan biri beriladi.

Keyingi bosqichda maqsad funksiya va tegishli shartlar belgilanib tarmoq bo'yicha yuqorida keltirilgan yechimni baholash amalga oshiriladi. Maqsad funksiyani shunday belgilash kerakki, unda real sharoitdagi barcha cheklovlar (byudjet, transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarining minimal chegaralari va b.) yakuniy natijani topishda ishtirok etishi kerak. Maqsad funksiyani belgilash yo'l holatini ifodalovchi ko'rsatkichni o'rnatilgan byudjet cheklovlarini hisobga olgan holda minimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

Yo‘l holatini ifodalovchi maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$M_{yo'l_holati} = \sum_{t=1}^T \frac{1}{T} IRI_{it} \rightarrow \min \quad (1)$$

Maqsad funksiyaning eng kichik qiymatini topish uchun quyida keltirilgan shartlar bajarilishi kerak:

$$\sum_{i=1}^I X_{it} \leq B_t, \quad (2),$$


$$IRI_{it} \leq IRI_{max} \text{ yoki } IRI_{it} \leq 4,5 \quad (3),$$

$$IRI_{it} \geq 1,5 \quad (4)$$

$$IRI_{it} = IRI_{i(t-1)} + \Delta IRI_k \quad (5)$$

Bu yerda: IRI_{it} va $IRI_{i(t-1)}$ mos ravishda t va $(t-1)$ yildagi xalqaro ravonlik indeksining qiymatlari, X_{it} – i –yo‘lda t –yildagi ta‘mirlash uchun sarflanadigan mablag‘ miqdori, B_t – t –yildagi ta‘mirlash ishlari uchun ajratiladigan umumiy byudjet miqdori, ΔIRI_k – k – turdagi ta‘mir turini amalga oshirish natijasida xalqaro ravonlik indeksi (IRI) ning kamayishi. (3) va (4) ifodalarda IRI ning ruxsat etilgan eng yuqori va eng kichik qiymatlari uchun chegaralar belgilangan.

Ushbu jarayonni yuqorida keltirilgan ketma-ketlik va shartlar asosida tanlangan yo‘l tarmog‘ida sinovdan o‘tkazildi. Asosiy hisoblarni amalga oshirish uchun Microsoft Excel dasturining Solver paketi va Python dasturlash tilidan foydalanildi.



12-rasm. Yo‘l qoplamasi ravonligining ta‘mirlash ishtarini rejalashtirish natijasida o‘zgarishi

